

ALLOMORF TUSHUNCHASINING DUNYO TILSHUNOSLIGIDA O'RGANILISHI

Saidoripova Dilorom

Toshkent davlat sharqshunoslik universiteti

Eronshunoslik va afg'onshunoslik oliy maktabi o'qituvchisi

Tel: +9989909629295.

d-mirzayeva@mail.ru

ANNOTATSIYA

Mazkur maqolada allomorf tushunchasining mazmun-mohiyati, uning morfologik birlik sifatidagi o'rni hamda dunyo tilshunosligida o'rganilish holati tahlil qilindi. Turli tillarda allomorflarning namoyon bo'lish shakllari, ularning fonetik, morfologik va semantik xususiyatlari qiyosiy tahlil asosida ko'rib chiqildi. Xususan, ingliz, rus va boshqa ba'zi tillarda allomorflarning tadqiq etilishi, olimlar tomonidan ilgari surilgan yondashuvlar o'rganiladi. Tadqiqotda taqqoslash va tahlil metodlaridan foydalanilgan bo'lib, ushbu usullar orqali allomorfiyaning universal va milliy xususiyatlari aniqlandi. Maqola natijalariga ko'ra, allomorflarning til tizimidagi roli nafaqat morfologik darajadagi shaklshunoslik, balki umumiy til strukturasi va taraqqiyotida muhim omil ekani isbotlandi.

Kalit so'zlar: Morfema, affiksial morfema, allomorf, fonologik allomorf, morfologik allomorf, suppletiv allomorf va semantik (leksik) allomorf.

АННОТАЦИЯ

В данной статье рассматривается понятие алломорфа, его сущность как морфологической единицы и особенности изучения в мировой лингвистике. Анализируются формы проявления алломорфов в различных языках, а также их фонетические, морфологические и семантические особенности на основе сравнительного анализа. Особое внимание уделяется исследованиям алломорфов в английском, русском, немецком и других языках, а также подходам, предложенным различными учёными. В исследовании использованы методы сопоставления и анализа, что позволило выявить универсальные и национальные черты алломорфии. Полученные результаты доказывают, что алломорфы играют важную роль не только на морфологическом уровне, но и в структуре языка в целом.

Ключевые слова: Морфема, аффиксальная морфема, алломорф, фонологический алломорф, морфологический алломорф, супплетивный алломорф, семантический (лексический) алломорф

ABSTRACT

This article explores the concept of the allomorph, its essence as a morphological unit, and how it has been studied in global linguistics. The work analyzes the ways allomorphs manifest in various languages, focusing on their phonetic, morphological, and semantic characteristics through comparative analysis. Special attention is given to studies on allomorphs in English, Russian, German, and other languages, as well as to the theoretical approaches proposed by different scholars. The research employs comparative and analytical methods to identify both universal and language-specific features of allomorphy. The findings demonstrate that allomorphs play a crucial role not only at the morphological level but also in the overall structure and development of language.

Key words: *Morpheme, affixal morpheme, allomorph, phonological allomorph, morphological allomorph, suppletive allomorph, and semantic (lexical) allomorph.*

KIRISH

Dunyo tilshunosligida o‘z yechimini kutayotgan ko‘plab masalalar mavjud. Xususan, morfologiyada allomorflik hodisasi ham dunyo tilshunoslarining diqqatini tortib kelmoqda.

Ma‘lumki, so‘z yasalishi tilshunoslikning morfologiya bo‘limida o‘rganiladi. “Morfemalar vazifasiga ko‘ra ikki xil guruhga ajratiladi:

1. Asos morfema (o‘zak morfema) so‘zda albatta ishtirok etadi, shu so‘z asosidagi leksik ma‘noni ifoda etadi. Shu sababli, asosiy morfema so‘zning o‘zagi deyiladi. U so‘z yasallish uchun ham, shakl yasallish uchun ham asos bo‘la oladi. So‘zning tub ma‘no anglatgan qismi o‘zak deyiladi.

2. Affiksial morfema (ko‘makchi morfema) so‘zning leksik va grammatik ma‘nolarining shakllanishida xizmat qiladigan morfemadir. U mustaqil leksik ma‘no ifodalay olmaydi. Affiksial morfema haqida fikr yuritadigan bo‘lsak, affikslarning har biri o‘ziga xos ma‘noga ega. Affiksial morfemalar negizga qo‘shilib, uning lug‘aviy-grammatik xususiyatlari bilan bog‘liq bo‘lgan har xil ma‘nolarni ifodalashga izmat qiladi”¹.

Ayrim adabiyotlarda affiksial morfemalar ma‘nosi va funksiyasiga ko‘ra, ikki turga bo‘linishi qaaaayd etilgan:

1) shakl yasovchi morfemalar (qo‘shimchalar) - so‘zning leksik ma‘nosini o‘zgartirmaydi, yangi so‘z yasamaydi, balki shu so‘zning grammatik shaklini yasaydi, unga yangi grammatik ma‘no qo‘shadi, kichraytirish, erkalash, takrorlash,

¹ Xo‘janiyozov E. Tilshunoslik asoslari. Nukus. 2012. B. 24

davomiylik kabi turli qo‘shimcha ma’no anglatuvchi yoki so‘zning biror vazifani bajarishga moslashgan shakllarini yasaydi.

2) so‘z yasovchi morfemalar (qo‘shimchalar) - turli so‘zlarga qo‘shilib, uning ma’nosiga bog‘liq yangi so‘zni hosil qiladi”².

Tilshunos olim A. Hojiyev ta’biri bo‘yicha, “affikslar so‘zning boshiga, o‘rtasiga yoki oxiriga qo‘shilishi mumkin. So‘zning boshiga qo‘shiladigan affikslar prefiks, o‘rtasiga qo‘shiluvchilar infiks, so‘z oxiriga qo‘shiladiganlari suffiks deyiladi”³.

Yuqoridagi fikrlardan xulosa shuki, allomorflarni 2 turga, ya’ni

1) so‘z yasovchi affiksallomorflar;

2) shakl yasovchi affiksallomorflarga ajratish mumkin.

Bunga qo‘shimcha ravishda olim morfemaning mohiyatini shunday belgilaydi: “Morfemalar sistemani shakllantiruvchi til birliklarini, ya’ni yasama so‘z yoki so‘z shaklini yasaydi. Uning mohiyati shundan iborat. Ularni “yasovchi til birliklari” deyish tog‘ri bo‘ladi. Ular shu yasovchilik belgisiga ko‘ra, boshqa birliklardan farq qiladi... Morfema o‘z ifoda va ma’no jihatiga ega bo‘lgan so‘z yasash yoki so‘z shaklini yasash uchun xizmat qiladigan lisoniy birlik”⁴. Olim o‘zbek tilshunosligida an’anaviy ravishda “o‘zak morfema, leksik morfema” atamalari bilan atalayotgan morfemaning e’tibordan soqit qolmoqda va tilimizdagi affiksall morfemalarning rolini birmuncha ortiqcha baholamoqda.

Allomorf atamasi birinchi marta kimyoda kimyoviy o‘zgarishlarni tasvirlash uchun ishlatilgan⁵. Bu atama tilshunoslikda ilk bor Oxford Learner’s lug‘atlarida 1940-yillarda qo‘llanilgan bo‘lib, ingliz tili uchun birinchi marta 1948-yilda Fotih Shat va Sibel Merve tomonidan XIV asrda (Oxford Learner’s lug‘atlari) ishlatilganligi aniqlangan.

Dunyo tilshunoslarining fikrlariga ko‘ra, allomorf — bu bir morfemaning turli fonetik shakllarda yoki strukturalarda ifodalangan shakli bo‘lib, u morfologiyada so‘zlarning ma’no va shakllarining qanday o‘zgarishini tushuntiradi. Allomorflar tildagi morfemalarning fonetik va grammatik kontekstga bog‘liq ravishda qanday shakllanishini ko‘rsatadi.

Tilshunoslikda allomorf tushunchasiga tuli xil qarashlar mavjud bo‘lib, ba’zi olimlar allomorfni *bir morfemaning variantlari*⁶ shaklida o‘rganishsa, ba’zilar

² Sapayev Q. Hozirgi o‘zbek tili (Morfemika, so‘z yasalishi va morfologiya). T.: -2009. B 15.

³ Hojiyev A. Tilshunoslik terminlarining izohli lug‘ati. T.: 2002. – B. 19-20.

⁴ Хожиев А. Ўзбек тили морфологияси, морфемикаси ва сўз ясашининг назарий масалалари. -Т.: Фан, 2010. 29-б.

⁵ Bunga ko‘ra, allomorfizm bir xil kimyoviy tarkibga ega bo‘lgan ayrim moddalarning kristall tuzilishidagi o‘zgaruvchanlikdir. (OXFORD DICTIONARY of Biochemistry and MOLECULAR BIOLOGY (2ed), 2008)

⁶ Тимофеев К.А. Вариантные отношения в лексике. – Н., 1986.; Hojiyev A. Tilshunoslik terminlarining izohli lug‘ati. T.: 2002; Nurmanov A. O‘zbek tili fonologiyasi va morfologiyasi. T., 1992

*morfologik alternatsiyalar*⁷ yana boshqa olimlar *affiksal morfemaning alternantlari*⁸ yoki *fonemaning variantlashuvi*⁹ hodisasi kabi tushunchalar bilan atashadi. Ba'zi o'rinlarda esa *affiksal morfemalar valaentligi*¹⁰, *affiksal sinonimiya*, *affiks-variant*, *affiksal paralellizm*, dublet kabi nomlar bilan ifodalanganini ko'rish mumkin. Tilshunoslikdagi mazkur tafovutlar, avvalo, allomorf tushunchasiga olimlarning yondashuvlarini qiyosalash orqali munosabat bildirishni taqozo etadi. Ushbu nazariy taqsimot asosida quyida tilshunos olimlarning fikrlari va ilmiy bahslari o'rganiladi.

1933-yilda amerikalik tilshunos Leonard Blumfeld o'zining "Til" nomli asarid¹¹ allomorflik hodisasini tahlil qiladi va allomorflar uchun "bir morfemaning alternantlari" terminini qo'llaydi. Bloomfield allomorflarni fonologik o'zgarishlarni tasvirlash uchun qo'llagan, ya'ni morfemaning turli fonetik shakllarini yoki tovush variantlarini ifodalashda allomorf tushunchasi yuzaga kelgan. Bu morfemaning asosiy ma'nosini o'gartirmaydigan turli talaffuzlari yoki tovush shakllari hisoblanadi hamda morfemalarning fonologik o'zgarishlarini o'rganuvchi morfofonemikada katta ahamiyatga ega. Keyinchalik bu masala ko'plab olimlarning diqqatini tortgan.

Hockett va Harris¹² kabi tilshunoslar allomorf borasida yakdil fikrga ega bo'lib, unga ko'ra, ikki yoki undan ortiq fonetik jihatdan farq qiluvchi morfologik birliklar bir xil morfologik vazifani bajarsa, bu bir morfemaning allomorflari hisoblanadi.

Polyak olimi V. Kotvich turkiy tillardagi bir necha so'z yasovchi va so'z o'zgartiruvchi affikslardan tashkil topuvchi asl turkiy so'zlarni quyidagi asosiy lisoniy unsurlarga yoki morfemik guruhlariga ajratadi:

1) o'ziga xos ma'no ega, yagona bo'linmaydigan morfemadan tashkil topgan nominativ o'zak;

2) so'zning lug'aviy ma'nosini o'zgartiruvchi va yasama leksemaning boshqa leksik va grammatik qatorlar bilan munosabatini belgilovchi affikslar. Bu affikslar o'zak bilan qo'shib, yangi so'zning asosini yaratadi va bu so'zning nihoyaviy leksik ma'nosini shakllantiradi;

3) ibora yoki gap tarkibiga kiruvchi so'zning o'zni va funksiyasini belgilovchi, ya'ni bu so'z qaysi vazifani (kesim, ega to'ldiruvchi yoki hol) bajarishi kerakligini ko'rsatuvchi funksional-grammatik affikslar¹³.

⁷ Abduazizov A. O'zbek tili fonologiyasi va morfofonologiyasi. "Universitet" T. 2010.

⁸ Nurmonov A., Usmonova H., Boboxonova D. Tilni sistema sifatida o'rganish. Namangan – 2011.;

⁹ Рубинчик Ю.А. Грамматика современного персидского литературного языка. - М.: 2001.; Диуф Алиу. Диссертация по филологии на тему "Морфонология русских префиксов и суффиксов". Москва. 2011.

¹⁰ Vohidov A. Fors tilida so'z yasalishi. T.: 2010.

¹¹ Bloomfield. L. Language. 1933. USA.

¹² Hockett C. F. Problems of morphemic analysis. Linguistic Society of America. 1947; Harris, Z. S. Methods in structural linguistics. University of Chicago Press. 1951

¹³ Котвич В. Исследование по алтайским языкам. –М.: Изд. вост. лит., 1962. -с. 51-52.

Turkiy tillarda ana shu affiksial morfemalar ishtirokida oʻrtaga chiqadigan grammatik shakl tushunchasi Yevropa tillariga moslangan anʼanaviy grammatik shakl tushunchasidan farq qiladi. Bu farq agglyutinatsiya tushunchasi, yaʼni soʻz va soʻzshakl yasashning oʻziga xos morfologik usullari bilan bogʻliqdir. Morfemalarning soʻz tarkibidagi izchil tartibi ularning maʼnaviy-grammatik xususiyati bilan bogʻliq, soʻzning lugʻaviy maʼnosini hosil qiluvchi (soʻz yasovchi) affiks birinchi, lugʻaviy maʼnoga taʼsir qiluvchi (lugʻaviy shakl hosil qiluvchi) affiks ikkinchi va lugʻaviy maʼnoga taʼsir qilmaydigan (aloqa-munosabat) affikslari uchinchi boʻlib qoʻshiladi. Qoʻshimchaning oʻrinlashuvdagi meʼyoriy holat baʼzan istisno koʻrinishlar ham kasb etadi (opa-lar-im -opa-m-lar, ayt-di-ng-lar –ayt –di –lar -ingkabi). Bu kam uchraydigan hodisa boʻlsa-da, unda grammatik, uslubiy va dialektal asoslar mavjud¹⁴.

Bir morfemaning variantlari. Shangrela V. Genon-Sieras¹⁵ allomorf tushunchasi yuzasidan turli olimlarning fikrlarini oʻrganib tahlilga tortgan va u quyidagicha:

Agar turli morfemalar bir morfemani ifodalasa, ular birgalikda guruhlanadi va ular shu morfemaning allomorflari deyiladi¹⁶. R. Liber allomorflarni bir xil morfemaning fonologik jihatdan farq qiluvchi variantlaridir¹⁷ - deya taʼkidlaydi. Bunda allomorflar turli xil tovushli shakllariga ega, lekin ular bir xil maʼno yoki vazifaga egadir. Haspelmath & Sims ushbu fikrga qarshi chiqib, “morfemalar turli sharoitlarda turli xil fonologik shakllarga ega boʻlganda allomorflar yuzaga chiqadi”¹⁸ – degan fikrni ilgari surishgan. R. Liber allomorflar yuzasidan keltirgan nazariyasini isboti sifatida ingliz tilidagi *in-* inkor prefiksini misol qilib keltiradi. *In-* prefiksi “intolerable” soʻzini yasasa, uning *im-* va *il-* variantlari “impossible” va “illegal” kabi soʻzlarni yasaydi. Ushbu prefiks va uning variantlarining fonetik talaffuzlari turli xil boʻlsa-da, yasaliş oʻrinlari va inkor maʼnoli soʻzni hosil qilishi vazifasi bir xildir.

P. Kroger¹⁹ R. Liberning fikrlarini tasdiqlab, “Bir morfemaning turli variantlari allomorf deyiladi”, – deya tarif beradi va quyidagicha ingliz tilidagi misollarni keltiradi: *liv-ed* va *tak-en*. Bu yerda *-ed* va *-en* suffikslari oʻzaro allomorf boʻlib kelishini koʻrsatib bergan.

¹⁴ Kuchimova G. Yasovchi (affiksial) morfemalarning lisoniy maqomi xususida. // Ilm-fan taraqqiyotida zamonaviy metodlarning qoʻllanilishi. –B. 67. // <https://academics.uz/index.php/conference/article/view/2235/3495>

¹⁵ Shangrela V. Genon-Sieras. Affixations and Allomorphs in Verbs and Nouns in a Research Abstract: A Morphemic and Morphophonemic Analysis// International Journal of English Language Studies (IJELS) June 15, 2020. V.2, I.2. – P. 14-22.

¹⁶ Katamba F. Morphology. Modern Linguistics Series. London: Palgrave. 1993

¹⁷ Lieber R. Introducing morphology. Cambridge: Cambridge University Press. 2009.

¹⁸ Haspelmath, M., & Sims, A. D. Understanding Morphology (2nd Edition ed.). (B. Comrie, & G. Corbett, Eds.) Hodder Education. 2010.

¹⁹ Kroeger P. Analyzing grammar: an introduction. Cambridge: Cambridge University Press. 2005.

Yana bir ingliz olimi L. Bauer²⁰ning nazariyasiga ko‘ra, allomorf – bu bir morfemani shartli ravishda fonetik, leksik, gramatik jihatdan o‘rnini bosuvchi bir tarkibiy qismidir.

I. Arnold esa allomorf tushunchasiga quyidagicha ta’rif beradi: Yunoncha “allos” so‘zidan olingan “allo”-“boshqa” termini lingvistik terminologiyada tilning tarkibiy birligini jumladan, allofonlar, allomorflarni tashkil etuvchi guruh elementlarini bildirish uchun ishlatiladi. Masalan: -ion/-sion/-tion/-ation kabi so‘z yasovchi affikslar bir qo‘shimchaning pozitsion variantlaridir. Buni ko‘rsatish uchun ular bu yerda birga olinadi va [/] belgisi bilan ajratiladi. Ular ma’no yoki vazifa jihatidan farq qilmaydi, lekin oldingi o‘zakning oxirgi fonemasiga qarab tovush shaklida bir oz farq qiladi hamda bir morfemaning varianti sifatida qaralib, allomorflar deb ataladi²¹.

Rus tilshunosi D. Aliu allomorflar uchun *variantlar almashinuvi* terminini qollab, asos morfonologiyasi va ko‘makchi morfonologiyasini bir-biriga oppozitsiyaga qo‘yadi hamda o‘z nazariyasining isboti tariqasida rus tilidagi shaxs oti yasovchi -щ hamda -ч suffikslarining (*свар-щик*, lekin *налет-чик*), -нн va -н ravishdosh qo‘shimchasi (*влюбл-енн-ая*, lekin *влюбл-ен-а*)²² bilan almashinuvlarni misol tariqasida keltiradi.

N. Shanskiy²³ o‘zining “Основы словообразовательного анализа” asarida allomorf uchun ‘Variantli morfemalar’ termini bilan atab, Variantli morfemalar — bu ma’lum darajada boshqa tovushga ega bo‘lgan bir xil ma’noni ifodalovchi va bir-biridan stilistik yoki so‘z yasalishi jihatidan farq qiladigan morfemalardir, deya ta’rif beradi. Olim so‘zining isboti sifatida rus tilidagi возчик - каменщик, ворвался - ворвалась, сахара — сахару kabi misollarni keltiradi.

Xudoyberganova D.ning ta’riflashiga ko‘ra, Allomorflar — bu turli lingvistik sharoitlarda uchraydigan, ammo bir xil ma’noni ifodalovchi bitta morfemaning variant shakllaridir. Ularning farqlanishi fonologik, morfologik yoki kontekstual omillar bilan bog‘liq. Allomorflik hodisasi morfema atrof-muhitga moslashib, turli shakllarda namoyon bo‘lganda yuzaga keladi. Allomorflarning asosiy belgisi — morfemalar shaklan farqlansa-da, bitta asosiy morfemaning ma’nosini saqlab qolishidir²⁴.

²⁰ Bauer L. English word formation. UK: Cambridge University Press. 1983

²¹ Арнольд И. Лексикология современного английского языка: Учеб. для ин-тов и фак. иностр. яз. — 3-е изд., перераб. и доп. — М.: Высш. шк., 1986. — 295 с., ил. — На англ. яз. В-101-102

²² Диуф Алиу. Диссертация по филологии на тему “Морфонология русских префиксов и суффиксов”. Москва. 2011., — Б. 18.

²³ Шанский Н. Очерки по русскому словообразованию и лексикологии. М. 1959., — Б. 67.

²⁴ Xudoyberganova D. Difference between bound morpheme and allomorph.

Dastlab tilshunoslikda Leonard Bloomfield²⁵, Zellig Harris²⁶, Charles Hockett²⁷ va Peter H. Matthews²⁸ kabi olimlar allomorflarni 2 turga, ya'ni fonologik allomorflar va morfologik allomorflarga ajratib tadqiq qilishgan:

Fonologik allomorflar. Morfemaning shakli tilning fonologik qoidalariga mos kelib o'zgaradi.

Morfologik allomorflar. Morfemaning shakli grammatika yoki tilning morfologik strukturalariga qarab o'zgaradi.

Keyinchalik esa Francis Katamba²⁹, Andrew Carstairs-McCarthy³⁰, Peter H. Matthews³¹ Haspelmath and Sims³² kabi qator tilshunoslar allomorflarni quyidagi 3 turga taqsimlab o'rganishgan:

1. Fonologik allomorflar. Fonologik allomorflar fonologik shartlanish natijasida vujudga keladi. Bunda morfemaning shakli tilning fonologik qoidalariga moslashishi uchun o'zgaradi. Ingliz tilida ko'plikni ifodalovchi "-s" morfemasi uchta fonologik allomorfga ega: /s/, /z/ va /ɪz/. Ko'plik morfemasining shakli u birikayotgan otning oxirgi tovushiga bog'liq holda o'zgaradi. Misol uchun:

- “Cats” soʻzida koʻplik morfemasi /s/ tovushi bilan talaffuz qilinadi.
- “Dogs” soʻzida koʻplik morfemasi /z/ tovushi bilan talaffuz qilinadi.
- “Horses” soʻzida koʻplik morfemasi /ɪz/ tovushi bilan talaffuz qilinadi.

2. Morfologik allomorflar. Morfologik allomorflar soʻzni tashkil etuvchi morfologik tuzilma orqali aniqlanadi. Baʼzi hollarda morfemaning shakli soʻzning morfologik tarkibiga qarab o'zgaradi. Masalan, baʼzi tillarda morfemaning shakli, u feʼl, ot yoki sifatga qoʻshilishiga qarab farq qilishi mumkin.

3. Suppletiv allomorf. Suppletiv allomorflar ikki yoki undan ortiq butunlay boshqacha shakllar bitta morfemani ifodalashida yuzaga keladi. Suppletiva odatda ingliz tilidagi notoʻgʻri feʼllarda uchraydi. Ingliz tilida oʻtgan zamon morfemasi *go* va *be* kabi feʼllarda suppletiv allomorfiyani namoyon qiladi. *Go* feʼlini oʻtgan zamonda “went” shakli qoʻllaniladi, “be” feʼli oʻtgan zamonda “was” yoki “were” kabi shakllarda boʻladi. Ushbu shakllar, toʻgʻri feʼllardan otgan zamon hosil qilishda qoʻllaniladigan “-ed” morfemasi (walked) bilan taqqoslaganda butunlay farq qiladi.

Allomorflik hodisasi ispan tilida ham uchraydi, jumladan, koʻplik qoʻshimchasi ‘-s’ yoki ‘-es’ shaklida boʻlishi mumkin:

- ‘libro’ → ‘libros’

²⁵ Bloomfield, L. Language. Allen & Unwin. 1933

²⁶ Harris, Z. Structural Linguistics. University of Chicago Press. 1951.

²⁷ Hockett, C. F. A Course in Modern Linguistics. Macmillan. 1958.

²⁸ Matthews, P. H. Morphology. Cambridge University Press. 1991.

²⁹ Katamba, F. Morphology. London: Macmillan, 1993, p. 18–19.

³⁰ Carstairs-McCarthy, A. An Introduction to English Morphology, Edinburgh University Press, 2002, p. 50–52

³¹ Peter H. Matthews — "Morphology" (Cambridge Textbooks in Linguistics)

³² Haspelmath, M. & Sims, A. Understanding Morphology, 2nd ed., Routledge, 2010, p. 33–36

- ‘mujer’ → ‘mujeres’

Bu yerda ‘-s’ va ‘-es’ morfemalari bir xil grammatik ma’noni ifodalovchi turli fonologik shakllardir, ya’ni alomorflardir³³.

Mark Aronoffning *Morphology by Itself* asarida allomorflarni to’rt turga ajratish tavsiya etiladi. Uning ta’kidlashicha, allomorflar quyidagi to’rt asosiy turga bo’linadi:

1. Fonologik allomorflar — Bu turdagi allomorflar morfemaning fonetik shakli o’zgarishi, lekin uning grammatik ma’nosi saqlanadi. Masalan, ingliz tilidagi ko’plik qo’shimchasi “-s” ning talaffuz shakllari /s/, /z/, va /ɪz/ bo’lib, ular so’zning oxirgi tovushiga bog’liq bo’ladi.

2. Morfologik allomorflar — Morfemaning shakli grammatik funktsiyalariga qarab o’zgaradi. Misol sifatida, “walk” fe’li o’tgan zamonda “walked” bo’lib, morfemalarning shakllari o’zgaradi, lekin asosiy ma’no saqlanadi.

3. Suppletiv allomorflar — Morfemaning shakllari butunlay boshqacha bo’lib, ular o’rtasida hech qanday fonetik yoki morfologik o’xshashlik yo’q. Masalan, “go” fe’lining o’tgan zamoni “went” shaklida, bu morfemalar o’rtasida fonetik o’xshashlik yo’q.

4. Semantik (leksik) allomorflar — Bu turdagi allomorflar morfemaning ma’nosi o’zgaradi, lekin grammatik shakli bir xil qoladi. Misol sifatida, ingliz tilidagi “-er” suffiksi “worker” (ishchi) va “player” (o’yinchi) kabi so’zlarda ishlatiladi. Har bir so’zning semantik ma’nosi turlicha bo’lsa ham, grammatik shakl bir xil qoladi³⁴.

Yevropa tilshunosligida allomorf tushunchasiga biroz boshqacharoq yondoshuv mavjud bo’lib, V. Yartseva *morfema almashinuvi* termini qo’llagan holda quyidagi ta’rifni keltiradi: “Morfologiyaning asosiy birligi bo’lgan morfema aniq variant – morf (allomorflar) ko’rinishida keluvchi mavhum invariantga o’xshab, fonema kabi anglanadi: morfemaning har xil variantlarda ishlatishi turli pozitsiyalar – Grammatik pozitsiya kabi (bu hollarda Grammatik yoki morfologik variantlar ko’rinishlarida keladi) fonetik pozitsiya (bu hollarda morfema fonetik ko’rinishida keladi) bilan ham bog’liq³⁵. Olim misol tariqasida rus tilidagi “*нуча*” fe’liga “*нууу*” asos morfema grammatik pozitsiya (invariant formasi-haqiqiy variant formasi)da uchrashini asos qilib keltirgan hamda turli morfema almashinuvi ingliz tilidagi otlarning ko’plik qo’shimchalari -s, -z va -iz fonetik shartli pozitsiyada uchraydi”. Olim o’z fikrlarini quyidagi misollar orqali isbotlaydi: *bats* – ko’rshapalaklar, *birds* – qushlar, *boxes* – qutilar”. Demak, V. Yartseva har bir allomorflarning o’z pozitsiyasi borligi fikrini ilgari surgan.

³³ Hualde, José Ignacio; Olarra, Antxon; Escobar, Anna María — Introducción a la lingüística hispánica (2001, 2-chi nashr).

³⁴ Aronoff, M. *Morphology by Itself*. MIT Press. 1994. P. 34–56

³⁵ Ярцева В.Н. Лингвистический энциклопедический словарь.: В.А. М. 1990., – Б. 313

XULOSA

Morfologiyada allomorflik hodisasi, morfemalarning turli fonetik yoki struktural shakllarda namoyon bo'lishini tushuntiradi. Ushbu hodisa tilshunoslikda muhim ahamiyatga ega, chunki u so'zlarning grammatik va leksik shakllarini qanday o'zgarishini ko'rsatadi. Allomorflar bir morfemaning turli variantlaridir va ular fonologik, morfologik yoki kontekstual omillarga qarab shakllanadi. Har xil olimlar allomorf tushunchasiga turli yondoshuvlar bilan qarashgan. Misol uchun, fonologik allomorflar so'zning talaffuziga bog'liq bo'lsa, morfologik allomorflar so'zning grammatik tuzilmasiga qarab o'zgaradi. Suppletiv allomorflar esa morfemaning butunlay farq qiluvchi shakllari sifatida qoraladi.

Tilshunoslikda allomorflar turli xil variantlarga ega bo'lishi mumkin: fonologik, morfologik, suppletiv va semantik allomorflar. Ularning har biri tilning morfologik strukturalarini o'rganishda muhim rol o'ynaydi. Shuningdek, dunyo tilshunoslarining fikriga ko'ra, allomorf tushunchasining ilmiy nazariy asoslari kengayib, tildagi morfemalarning o'zgaruvchan shakllarini to'g'ri tahlil qilish imkonini yaratadi. Bu allomorflarning o'rganilishi tilshunoslikda morfologiyaning yirik qismini tashkil etadi.

FOYDALANILGAN ADABIYOT VA MANBALAR RO'YXATI

1. Abduazizov A. O'zbek tili fonologiyasi va morfofonologiyasi. "Universitet" T. 2010.
2. Aronoff, M. Morphology by Itself. MIT Press. 1994. P. 34–56
3. Bauer L. English word formation. UK: Cambridge University Press. 1983
4. Bloomfield. L. Language. 1933. USA.
5. Bunga ko'ra, allomorfizm bir xil kimyoviy tarkibga ega bo'lgan ayrim moddalarning kristall tuzilishidagi o'zgaruvchanlikdir. (OXFORD DICTIONARY of Biochemistry and MOLECULAR BIOLOGY (2ed), 2008)
6. Carstairs-McCarthy, A. An Introduction to English Morphology, Edinburgh University Press, 2002, p. 50–52
7. Harris, Z. Structural Linguistics. University of Chicago Press. 1951.
8. Haspelmath, M. & Sims, A. Understanding Morphology, 2nd ed., Routledge, 2010.
9. Hocket C. F. Problems of morphemic analysis. Linguistic Society of America. 1947; Harris, Z. S. Methods in structural linguistics. University of Chicago Press. 1951
10. Hockett, C. F. A Course in Modern Linguistics. Macmillan. 1958.
11. Hojiyev A. Tilshunoslik terminlarining izohli lug'ati. T.: 2002. – B.

12. Hualde, José Ignacio; Olarrea, Antxon; Escobar, Anna María — Introducción a la lingüística hispánica (2001, 2-chi nashr).
13. Katamba F. Morphology. Modern Linguistics Series. London: Palgrave. 1993
14. Kroeger P. Analyzing grammar: an introduction. Cambridge: Cambridge University Press. 2005.
15. Kuchimova G. Yasovchi (affiks) morfemalarning lisoniy maqomi xususida. // Ilm-fan taraqqiyotida zamonaviy metodlarning qo'llanilishi. –B. 67. // <https://academics.uz/index.php/conference/article/view/2235/3495>
16. Lieber R. Introducing morphology. Cambridge: Cambridge University Press. 2009.
17. Matthews, P. H. Morphology. Cambridge University Press. 1991.
18. Nurmonov A., Usmonova H., Boboxonova D. Tilni sistema sifatida o'rganish. Namangan – 2011.;
19. Peter H. Matthews — "Morphology" (Cambridge Textbooks in Linguistics)
20. Sapayev Q. Hozirgi o'zbek tili (Morfemika, so'z yasalihi va morfologiya). T.: 2009.
21. Shangrela V. Genon-Sieras. Affixations and Allomorphs in Verbs and Nouns in a Research Abstract: A Morphemic and Morphophonemic Analysis// International Journal of English Language Studies (IJELS) June 15, 2020. V.2, I.2. – P. 14-22.
22. Vohidov A. Fors tilida so'z yasalihi. T.: 2010.
23. Xo'janiyozov E. Tilshunoslik asoslari. Nukus. 2012. B.
24. Xudoyberganova D. Difference between bound morpheme and allomorph.
25. Арнольд И. Лексикология современного английского языка: Учеб. для ин-тов и фак. иностр. яз. — 3-е изд., перераб. и доп. — М.: Высш. шк., 1986. — 295 с., ил. — На англ. яз. В-101-102
26. Диуф Алиу. Диссертация по филологии на тему “Морфонология русских префиксов и суффиксов”. Москва. 2011., – Б. 18.
27. Котвич В. Исследование по алтайским языкам. –М.: Изд. вост. лит., 1962. - с. 51-52.
28. Рубинчик Ю.А. Грамматика современного персидского литературного языка. - М.: 2001.; Диуф Алиу. Диссертация по филологии на тему “Морфонология русских префиксов и суффиксов”. Москва. 2011.
29. Тимофеев К.А. Вариантные отношения в лексике. – Н., 1986.; Hojiyev A. Tilshunoslik terminlarining izohli lug'ati. T.: 2002; Nurmanov A. O'zbek tili fonologiyasi va morfologiyasi. T., 1992
30. Хожиев А. Ўзбек тили морфологияси, морфемикаси ва сўз ясалишининг назарий масалалари. -Т.: Фан, 2010.

31. Шанский н. Очерки по русскому словообразованию и лексикологии. М. 1959., – Б. 67.
32. Ярцева В.Н. Лингвистический энциклопедический словарь.: В.А. М. 1990., – Б. 313